Abstract: This article examines the analysis of the activities of industrial enterprises in the stock market: problems and solutions, the formation of financing of activities and projects of enterprises based on corporate securities, the experience of foreign countries is studied. In particular, the article highlights the current state of state assets, the functioning of industrial enterprises from the stock market in recent years, the development of the capital market, and a number of reforms in the securities market. The total number of shareholders by industry is estimated based on the current share and concluded transactions. Currently, the issue of industrial enterprises entering the stock market and their regular stay on it, as well as its problems, is being covered. The financial literacy of individuals and legal entities is highlighted by an analysis of their activities on the republican stock exchanges and the expenses of income received by the population.

Key words: assets, monopoly, capital market, stocks, stock exchanges, corporate bonds, industries, concentration, liquidity, market maker, real estate, investments.

Аннотация: В данной статье рассмотрен анализ деятельности промышленных предприятий на рынке акций: проблемы и решения, формирование финансирования деятельности и проектов предприятий на основе корпоративных ценных бумаг, изучен опыт зарубежных стран. В частности, в статье освещается текущее состояние государственных активов, функционирование промышленных предприятий с рынка акций за последние годы, развитие рынка капитала, ряд реформ на рынке ценных бумаг. Общее количество акционеров по отраслям оценивается по текущей доле и заключенным сделкам. В настоящее время освещается вопрос о выходе промышленных предприятий на фондовый рынок и их регулярном пребывании на нем, а также о его проблемах. Финансовая грамотность физических и юридических лиц освещается анализом их деятельности на республиканских фондовых биржах и расходов доходов, получаемых населением.

Ключевые слова: активы, монополия, рынок капитала, акции, фондовые биржи, корпоративные облигации, отрасли, концентрация, ликвидность, маркет-мейкер, недвижимость, инвестиции.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi qimmatli qog'ozlar bozori so'nggi yillarda juda ko'p o'zgarishlar va ma'muriy islohotlar obyekti bo'lgan. O'zbekiston Respublikasining xususiyashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi negizida qayta tashkil etilgan¹. Biroq, bu islohot ham ikki yildan so'ng

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-apreldagi PF-5016-son "O'zbekiston Respublikasi Xususiyashtirilgan korxonalariga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasini tashkil etish to'g'risida"gi Farmoni



takomillashtirilib², oldin mavjud bo'lgan bir qo'mitadan 3 ta tashkilot paydo bo'lgan – Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi va Kapital bozorini rivojlantirish agentligi tashkil etilib³, qimmatli qog'ozlar bo'yicha nazorat oxirgi keltirilgan agentlikka yuklatilgan.

2021 yilda Kapital bozorini rivojlantirish agentligi ham tugatilib, uning funksiyalari o'sha paytdagi Moliya vazirligining Kapital bozorini rivojlantirish departamentiga o'tkazilgan⁴. Oradan yana ikki yil o'tib, mamlakatda amalga oshirilgan ulkan ma'muriy islohotlar natijasida Iqtisodiyot va Moliya vazirliklari birlashishi ortidan qimmatli qog'ozlar bozorini nazorat qilish funksiyasi Istiqbolli loyihalarni boshqarish milliy agentligiga yuklatilgan. Shunday bo'lsada, qimmatli qog'ozlar bozorida yildan-yilga ijobiy o'zgarish tendensiyalari kuzatilayotgani "Toshkent" Respublika fond birjasining yillik hisobotlarida aks ettirilmoqda. 2024 yil yakuni bo'yicha savdolarning umumiy hajmi 21,95 trln so'mni (1,71 mlrd dollar) tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 19,06 trln so'mga o'sdi. Bunda, 19,56 trln so'm (1,53 mlrd dollar) yoki tuzilgan bitimlarning 89,11 foizi birja kotirovkalash varag'iga kiritilgan qimmatli qog'ozlar bilan tuzilgan bitimlar hissasiga to'g'ri keldi. Savdolar hajmning qolgan qismi uyushgan birjadan tashqari bozordagi (listingdan tashqari savdo maydonchasi – LTSM dagi) bitimlarga to'g'ri keldi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston sanoat korxonalarining fond bozorida ishtiroki bo'yicha ilmiy adabiyotlarda turli nuqtayi nazarlar mavjud bo'lib, ularning aksariyati bu yo'nalishdagi ishtirokning sustligi va moliyaviy instrumentlar xilma-xilligining yetarli emasligi bilan bog'liq muammolarni ta'kidlaydi. Jumladan, A. Raximov sanoat korxonalarining fond bozori orqali mablag' jalb qilish imkoniyatlarini cheklab turgan asosiy omil sifatida axborot ochiqligi va korporativ boshqaruvdagi zaiflikni ko'rsatadi. Uning fikricha, aksiyadorlik jamiyatlari o'z faoliyati haqida investorlarga yetarli ma'lumot bermagani sababli, fond bozorida ularga nisbatan ishonch past darajada qolmoqda.

Shuningdek, G. Karimova fond bozorining sanoat sektori bilan integratsiyasini rivojlantirishda tarmoqlar kesimidagi asimmetriklilik muammosiga e'tibor qaratadi. Uning tahlillariga ko'ra, energetika va neft-gaz sanoatidagi yirik korxonalar fond bozori bilan nisbatan faol aloqaga ega bo'lsa-da, kimyo, mashinasozlik, yengil sanoat kabi yo'nalishlarda bu ko'rsatkich sezilarli darajada past. Bu holat sanoat ichidagi tarkibiy nomutanosiblikni kuchaytiradi.

Jahon tajribasiga murojaat qilgan holda, R. Goldsmithning kapital bozorlarining iqtisodiy o'sishga ta'siri haqidagi qarashlari O'zbekiston kontekstida ham ahamiyatlidir. Unga ko'ra, moliyaviy vositalarning diversifikatsiyasi ishlab chiqarish korxonalarining innovatsion faoliyatini moliyalashtirish imkonini kengaytiradi. Biroq, O'zbekiston fond bozori hali bunday darajadagi moliyaviy chuqurlikka erishmagan.

Yana bir muhim manba sifatida M. Bekturdiyev tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda sanoat korxonalarining aksiyalarini birjada joylashtirishga bo'lgan qiziqishning pastligi kreditga asoslangan moliyalashtirish modelining ustunligi bilan izohlanadi. Bu esa, fond bozorining alternativ moliyaviy manba sifatida rolini cheklaydi.

A. V. Demytyev esa sanoat korxonalarining bozorga kirishidagi institutsional to'siqlar, xususan byurokratik tartiblar va tartibga soluvchi mexanizmlarning nomuvofiqligini asosiy to'siq sifatida ko'rsatadi. Uning fikricha, investitsiya muhitini yaxshilash bilan birga, fond bozoriga chiqish shartlari yengillashtirilmasa, sanoat sektori bu platformadan foydalanishda sust qolaveradi.

Ushbu tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston sanoat korxonalarining fond bozorida ishtiroki kengaytirilishi uchun nafaqat infratuzilmaviy va institutsional sharoitlar, balki tarmoq ichidagi tarkibiy muvozanat ham yaxshilanishi lozim.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda O'zbekiston sanoat korxonalarining fond bozorida ishtiroki statistik ma'lumotlar, Davlat statistika qo'mitasi hisobotlari va fond birjalarining rasmiy ma'lumotlari asosida o'rganildi. Ma'lumotlar tahlilida komparativ tahlil, dinamik qatorlar va grafik usullardan foydalanilib, korxonalar ishtirokining miqdoriy va sifat jihatlari baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Birja savdo maydonchalarida tuzilgan bitimlarning umumiy soni 498 381 tani tashkil etdi, bu o'tgan yilga nisbatan 86 511 taga yoki 21,0 foizga ko'pdir. Shu bilan birga, birja kotirovkalash varag'iga kiritilgan qimmatli

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 14-yanvardagi PF-5630-son "Davlat aktivlarini boshqarish, monopoliyaga qarshi kurashishni tartibga solish tizimini va kapital bozorini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni

3 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 24-yanvardagi PQ-4127-son "O'zbekiston Respublikasi kapital bozorini rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori

4 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi PQ-5073-son "Kapital bozorini tartibga solish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori



qog'ozlar bo'yicha 446 967 ta bitim, listingdan tashqari savdo maydonchasida esa 51 414 ta bitim amalga oshirildi. 2024-yil yakunlariga ko'ra, [UCI] indeksi 7,7 foizga pasayib, 655,12 punkt darajasida yopildi.

Aksiyalar bozorining kapitallashuvi 72,99 trln so'mni (\$5,65 mlrd) yoki 43,1 foizga oshganini ko'rsatib, 242,4 trln so'mni (\$18,8 mlrd), ya'ni YalMga nisbatan 16,7 foizni tashkil etdi. Yil oxirida birja kotirovkalash varag'ida 93 ta emitentga tegishli 142 ta moliyaviy instrument mavjud edi. Yil davomida bu varaqa 15 ta emitentning 23 ta moliyaviy instrumenti kiritilgan bo'lib, ular orasida 7 ta korporativ obligatsiya va 16 ta aksiyalar emissiyasi mavjud.

Yil yakuniga ko'ra, birja kotirovkalash varag'iga kiritilgan qimmatli qog'ozlar bilan 19,56 trln so'mlik (\$1,53 mlrd) 446 967 ta bitim tuzilgan. O'rtacha kunlik savdolar hajmi 78,9 mlrd so'mni (\$6,2 mln), o'rtacha kunlik bitimlar soni esa 1 802 tani tashkil etdi.


Aksiyalar bozoridagi umumiy savdo hajmi 19,18 trln so'mni (\$1,5 mlrd) tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 16,56 trln so'mga oshdi. Shu bilan birga, savdolarning asosiy qismi — 18,6 trln so'm — aksiyalarni birlamchi joylashtirish bo'yicha bitimlar va ikkilamchi bozorda blok-bitimlar shaklida amalga oshirilgan pulsiz hisob-kitoblar platformasi (Free of Payment Board, [FoP])ga to'g'ri keldi.

[FoP] maydonchasidagi bitimlar hajmining sezilarli darajada o'sishi emitentlarning birjadan tashqari uyushmagan bozordan uyushgan bozorga bosqichma-bosqich o'tib, faol foydalanayotganlari bilan izohlanadi. Bu esa fond bozorida ochiqlik va shaffoflik darajasini oshirishga xizmat qilmoqda. Natijada, uyushmagan bozor ulushi o'tgan yilgi 94 foizdan 58 foizgacha qisqargan, uyushgan bozor ulushi esa 2024-yilda 6 foizdan 42 foizgacha oshgan. O'tkazilgan savdolarning o'rtacha kunlik hajmi 77,4 mlrd so'mni, tuzilgan bitimlarning o'rtacha kunlik soni esa 1 790 tani tashkil etdi (1-jadval).

1-jadval. Aksiyalar bozorining asosiy ko'rsatkichlari.

Ko'rsatkichlar	Qiymat	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil
Savdolar hajmi	mln so'm	510 800	1 147 110	4 705 790	2 620 570	19 182 120
O'rtacha kunlik savdolar hajmi	mln so'm	2 003	4 588	19 052	10 567	77 347
Bitta bitimning o'rtacha hajmi	mln so'm	14,2	16,1	58,4	6,4	43,2
Bitimlar soni	dona	35 983	71 187	80 652	411 393	443 849
O'rtacha kunlik bitimlar soni	dona	141	285	327	1 659	1 790

Xususan, 2024-yilda jami tuzilgan bitimlar soni umumiy qiymati 21,95 trln so'mni (\$1,71 mlrd) tashkil etdi. Shuningdek, "Toshkent" Respublika fond birjasida 2024-yilda 248 savdo kunida jami 138 ta instrument — korporativ qimmatli qog'ozlar savdosi amalga oshirildi. 2024-yilda tuzilgan bitimlar soni va hajmi o'tgan yillar ma'lumotlariga nisbatan mos ravishda quyidagicha oshgan (1-rasm):



1-rasm. Toshkent RFB da 2024-yilda tuzilgan bitimlar soni va hajmi⁵


5 "Toshkent" RFB – 2024-yil bo'yicha Birjaviy tahlil.



Tuzilgan bitimlar sonining ko'payishi, asosan, qimmatli qog'ozlar bozoriga chakana investorlarning faol kirib kelishi bilan izohlanadi. Bu jarayonga birjada savdo qilish imkonini beruvchi FinTech yechimlarining faol joriy etilishi sezilarli darajada yordam berdi. 2024-yil davomida "Xalq IPO" dasturi doirasida 42,9 mlrd so'mlik (\$3,4 mln) miqdorida bitta ommaviy joylashtirish — "O'zRTXB" AJning ikkilamchi ommaviy joylashtiruvi (SPO) amalga oshirildi.

Yil yakuniga ko'ra, aksiyalar bozorining kapitallashuvi 242,42 trln so'mgacha (\$18,8 mlrd) oshib, yalpi ichki mahsulotga nisbatan 16,3 foizni tashkil etdi. Erkin muomalada bo'lgan aksiyalarning (free float) bozor kapitallashuvi esa 4,3 trln so'mni (\$330,3 mln), ya'ni YalMga nisbatan 0,3 foizni tashkil etdi. Yil oxirida Birjaning birja kotirovkalash varag'ida 89 ta emitentning aksiyalari mavjud edi.

2024-yil yakunlariga ko'ra, UCI indeksi 54,7 punktga yoki 7,7 foizga pasayib, 655,1 punkt darajasida yopildi (2-rasm).



2-rasm. Toshkent RFB da 2024-yil uchun UCI indeksi grafigi⁶

Korporativ obligatsiyalar bozorida savdolar hajmi 381 mlrd so'mni (\$29,8 mln) tashkil etib, 288,8 mlrd so'mga yoki 313,3 foizga oshdi. O'rtacha kunlik savdolar hajmi 1,5 mlrd so'mni, o'rtacha kunlik bitimlar soni esa 13 tani tashkil etdi. 2024-yil yakuniga ko'ra, birja kotirovkalash varag'iga kiritilgan obligatsiyalarning bozor qiymati 817,6 mlrd so'mni (\$63,3 mln) yoki yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,1 foizni tashkil etdi (2-jadval, 3-rasm).


2-jadval. Obligatsiyalar bozorining asosiy ko'rsatkichlari.

Ko'rsatkichlar	Qiymat	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil
Savdolar hajmi	mln so'm	67340	113400	110420	92180	380960
O'rtacha kunlik savdolar hajmi	mln so'm	264	454	447	372	1 536
Bitta bitimning o'rtacha hajmi	mln so'm	852,4	375,5	1 555,2	193,2	122,2
Bitimlar soni	dona	79	302	71	477	3 118
O'rtacha kunlik bitimlar soni	dona	1	1	1	2	13


⁶ "Toshkent" RFB - 2024 yil bo'yicha Birjaviy tahlil.



Savdolar hajmi, mln so'm



Bitimlar soni, dona


3-rasm. Toshkent RFB da 2024-yilda obligatsiyalar bo'yicha tuzilgan bitimlar soni va hajmi⁷

2024-yil yakunlariga ko'ra, Birjaning listingdan tashqari savdo maydonchasida 51 414 ta bitim tuzildi, bu o'tgan yilga nisbatan 11,1 foizga ko'pdir. Savdolarning umumiy hajmi 2,4 trln so'mni (\$187,6 mln) tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 10 barobarga oshgan. Umumiy hisobda 180 ta emitentning qimmatli qog'ozlari bitimlar obyekti bo'ldi.

Birjaning bozor ma'lumotlarini Bloomberg terminalida OTC UZS <GO> buyrug'i orqali, shuningdek Refinitiv tizimi orqali ko'rish imkoniyati yo'lga qo'yildi. Dunyo bo'ylab Bloomberg va Refinitiv mijozlariga bozor ma'lumotlarini real vaqt rejimida taqdim etish, birjada sotiladigan qimmatli qog'ozlar bo'yicha ma'lumotlarni global investorlar uchun ochiq qilishga xizmat qiladi. Bu esa investitsiyalash jarayonini yengillashtiradi va O'zbekiston Respublikasiga xorijiy portfel investitsiyalari oqimini tezlashtiradi.

2024-yilda "Toshkent" Respublika fond birjasida iqtisodiyotning 10 ta turli sohasiga oid aksiyadorlik jamiyatlarining qimmatli qog'ozlari bilan birja savdolari amalga oshirildi. So'nggi bir necha yildan buyon birinchiilikni bank sektori emitentlari egallab kelayotgan bo'lsa, sanoat sektori emitentlarining qimmatli qog'ozlari savdosi ikkinchi o'rinni egalladi. Bank sektori emitentlarining qimmatli qog'ozlari bilan 229 898 ta bitim tuzilib, bu birja bitimlari umumiy sonining 55,82 foizini tashkil etdi. Sanoat tarmog'iga oid 12 ta emitentning qimmatli qog'ozlari bilan 36 798 ta bitim amalga oshirilib, bu ko'rsatkich birja bitimlari umumiy sonining 8,93 foiziga teng bo'ldi (4-rasm).

Sohalar bo'yicha 2024 yilda tuzilgan bitimlar soni, dona

4-rasm. 2024-yilda Toshkent RFB da sohalar bo'yicha birja bitimlarining soni, dona⁸

Sanoat korxonalarini hozirgi kunda fond bozoriga kirish va unda muntazam qolish bilan bog'liq bir qancha muammolarga duch kelmoqda (5-rasm).

7 "Toshkent" RFB - 2024 yil bo'yicha Birjaviy tahlil.

8 "Toshkent" RFB - 2024 yil bo'yicha Birjaviy tahlil.

**Muammolar**

- Bozor konsentratsiyasi
- Yirik hissadorlarning "hukmdorligi"
- Likvidlikning pastligi
- Aholining moliyaviy savodxonligi
- Instrumentlarning chegaralanganligi

5-rasm. Sanoat korxonalari fond bozorida duch kelayotgan muammolar⁹

Fond bozorining konsentratsiyasi bugungi kunda mavjud muammolarning eng asosiy sabablaridan biri sifatida ko'rilmoqda. Bozor konsentratsiyasi deganda, fond bozorida amalga oshirilayotgan savdolar ulushining katta qismi bir necha instrumentlar, ayniqsa bitta asosiy aktiv atrofida to'planishi tushuniladi. Xususan, "Toshkent" Respublika fond birjasidagi asosiy savdo instrumenti aksiyalar bo'lib, bozordagi jami savdolarning deyarli 99 foizi aynan shu instrument hissasiga to'g'ri keladi.

Fikrimizcha, kapitalning ma'lum bir hududda yoki bitta instrumentda markazlashuvi erkin va raqobatbardosh bozor muhitining shakllanishiga to'siq bo'ladi. Shu sababli, hududlarda fond bozorini rivojlantirish bo'yicha hukumat darajasida chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilishi, unda korxonalarni hududiy kesimda fond bozori ishtirokchisiga aylantirish yuzasidan aniq vazifa va muddatlar belgilanishi maqsadga muvofiqdir.


Korxonalar duch kelayotgan muammolardan yana biri yirik aksiyadorlarning fond bozorida raqobatchilar tomonidan nazorat paketini sotib olinishi ehtimoli bilan bog'liq ehtiyotkorlik pozitsiyasidir. Ya'ni, o'z vaqtida davlat mulkini xususiyashtirish jarayonida kompaniya ulushlarini qo'lga kiritgan yirik hissadorlar aksiyalarini fond bozoriga chiqarishni istamaydi yoki chiqarilgan taqdirda ham ularni sotmay, saqlab turadi. Bu holat bozor likvidligining past bo'lishiga, shuningdek, investorlar uchun instrumentlar tanlovi imkoniyatining cheklanishiga olib kelmoqda. Natijada, chakana savdolar ulushi past bo'lib qolmoqda va minoritar hamda majoritar investorlar o'rtasidagi tafovut chuqurlashmoqda.

Mazkur muammoni yumshatish maqsadida bu toifadagi korxonalarga oddiy aksiyalar o'rniga obligatsiyalar yoki imtiyozli aksiyalar chiqarish orqali fond bozorida faol ishtirok etish va kompaniya kapitalizatsiyasini oshirish tavsiya etiladi.

Fond bozorining sust rivojlanishiga sabab bo'layotgan yana bir omil — aholining moliyaviy savodxonlik darajasidir. O'zbekiston aholisi ortiqcha mablag'larini, odatda, ko'chmas mulk, avtomobil yoki xorijiy valyutadagi naqd pul shaklida saqlashni afzal ko'radi. Bu esa nafaqat fond bozoriga, balki moliyaviy bozorning boshqa segmentlariga ham yetarli kapital oqimi bo'lmasligiga, turli iqtisodiy zanjirlarning uzilishiga olib kelmoqda.

O'zbekiston aholisining moliyaviy savodxonligini aniqlash maqsadida xalqaro moliyaviy tashkilotlar tomonidan bir qator tadqiqotlar o'tkazilgan. Ulardan eng so'nggisi 2024-yilda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tomonidan o'tkazilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, O'zbekiston aholisi moliyaviy savodxonlik bo'yicha MDH davlatlari orasida Belarus Respublikasidan keyingi 2-o'rinni egallagan. So'rovnoma jalb qilinganlarning 59,9 foizi moliyaviy bilimlarga ega deb baholangan. Biroq bu natijalar asosan shaharlarda va tuman markazlarida yashovchi yoshi katta qatlamga tegishli bo'lib, ularni butun aholiga umumlashtirish induksiya tamoyiliga ziddir. Chunki mamlakat aholisining qariyb uchdan bir qismini 0–18 yoshli yoshlar, 10 foizdan ortig'ini esa 60 yoshdan oshgan keksalar tashkil etadi. Bu esa umumiy moliyaviy savodxonlik darajasini kutilganidan past bo'lishi mumkinligini anglatadi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 2024-yilda o'tkazilgan so'rovnoma asosida, aholining ortiqcha mablag'lari asosan ta'lim, uy-joy ta'miri va davolanish xarajatlariga yo'naltirilayotgani aniqlangan (6-rasm).

Aholi xarajatlari, O'zbekiston**6-rasm. Aholi xarajatlari tahlili, O'zbekiston**

⁹ Ilmiy adabiyotlar tahlili asosida muallif tomonidan tayyorlandi



Yuqorida keltirilgan 6-rasm ma'lumotlaridan kelib chiqib xulosa qiladigan bo'lsak, aholining iste'mol darajasi asosan ularning kundalik turmush xarajatlari va yaqin kelajakda amalga oshiriladigan xaridlar bilan cheklanmoqda. Bu holat ortiqcha mablag'larning sarmoya sifatida moliyaviy bozorlarga yo'naltirilish imkoniyatini sezilarli darajada kamaytiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Aksiyalarning markaziy moliyaviy instrument maqomini egallashi bozorda investitsion tanlov imkoniyatlarini sezilarli darajada cheklaydi. Bu holat qo'lida sarmoya kiritish uchun mablag'i mavjud bo'lgan investorlarning fond bozori imkoniyatlariga e'tiborini kamaytiradi. Natijada esa yuqorida tilga olingan muammolar bir-biriga bog'liq zanjirda takrorlanib, fond bozori barqaror rivojlanmaydi. Shu munosabat bilan mavjud muammolarga yechim bo'lishi mumkin bo'lgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish zarur.

O'zbekistonda fond bozorining yuqori darajadagi konsentratsiyasi raqobat muhitining yetishmasligi va moliyaviy instrumentlar xilma-xilligining pastligi bilan izohlanadi. Ushbu muammoni hal qilish uchun bozorni hududiy nuqtayi nazardan kengaytirish, ya'ni boshqa viloyatlarda fond birjalari tashkil etish orqali raqobatni kuchaytirish va investorlar uchun alternativ savdo maydonchalarini yaratish zarur. Bu jarayonda soliq imtiyozlari, soddalashtirilgan tartibga solish, texnik ko'mak va infratuzilma imkoniyatlari muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, korporativ obligatsiyalarni keng joriy etish, ayniqsa bank kreditlariga qaram bo'lgan sanoat korxonalarini uchun sarmoya jalb qilishning muqobil vositasi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq, aksiyadorlik jamiyatlari maqomida bo'lmagan yoki "Aksiyadorlar bilan ishlash" bo'limi faoliyat yuritmaydigan kompaniyalarda malakali kadrlar tanqisligi mavjud. Shu sababli, LBMA va "Toshkent" RFB tomonidan barcha hududlarda korxonalar rahbarlari va moliyaviy mutaxassislar uchun qisqa muddatli kurslar tashkil etilishi taklif etiladi.

Fond bozorida yirik aksiyadorlar tomonidan raqobatchilarga qarshi hukmronlik qilinishi bozorda sarmoya oqimini cheklab qo'yimoqda. Bunday holatni bartaraf etish uchun institutsional investorlarni jalb qilish zarur. Pensiya fondlari, investitsiya kompaniyalari va tijorat banklarining fond bozorida faol ishtirok etishini rag'batlantirish orqali investorlar bazasini kengaytirish va bozorda barqaror kapital aylanishini ta'minlash mumkin. Shu bilan birga, katta miqdordagi instrumentlar ustidan hukmronlik qilinayotgan sharoitda minoritar investorlarning ishtirokini rag'batlantirish uchun ularning manfaatlarini himoya qilish mexanizmlari mustahkamlanishi lozim.

Qimmatli qog'ozlar bozorida savdolar hajmi va tranzaksiya faolligining pastligi likvidlikning yetarli emasligidan dalolat beradi. Bu muammoni hal qilish uchun savdolarida ishtirok etayotgan marketmeykerlar sonini oshirish va ular uchun tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish orqali likvidlikni ta'minlash zarur. Bundan tashqari, savdo infratuzilmasini modernizatsiya qilish, ya'ni buyurtmalarni avtomatlashtirish, hisob-kitob vaqtlarini qisqartirish va foydalanuvchilarga qulay interfeys yaratish orqali investorlar uchun sharoitlar yaxshilanadi. Shuningdek, investitsiyalash va aktivlikni oshirish uchun fond bozori afzalliklari haqida ommaviy tushuntirish ishlari — media, ijtimoiy tarmoqlar, seminarlar orqali — kuchaytirilishi lozim.

Fond bozorining rivojlanmasligida aholining moliyaviy bilim darajasi hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Buni yaxshilash uchun moliyaviy savodxonlikni ta'lim tizimiga integratsiyalash zarur. Boshlang'ich va o'rta ta'lim bosqichlarida shaxsiy byudjet, sarmoya, risk va dividend tushunchalari o'rgatilishi kerak. Shu bilan birga, media, ijtimoiy tarmoqlar, seminar va treninglar orqali aholining barcha qatlamlariga yo'naltirilgan moliyaviy bilimlar berilishi lozim. Bundan tashqari, tijorat banklari, investitsiya firmalari bilan birgalikda aholi uchun onlayn va oflayn moliyaviy ta'lim dasturlarini yo'lga qo'yish ham muhim hisoblanadi.

Investitsion tanlov imkoniyatlari cheklanganligi fond bozori raqobatbardoshligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Buni bartaraf etish uchun moliyaviy mahsulotlarni diversifikatsiya qilish zarur. Birja fondlari (ETF), opsiyonlar, fyuchers shartnomalari kabi murakkab moliyaviy mahsulotlarni joriy etish orqali investorlar ehtiyojlarini to'liq qondirish mumkin. Shu bilan birga, investorlarni yangi mahsulotlar bilan tanishtirish va ulardan foydalanish bo'yicha metodik ko'rsatmalar, treninglar va resurslar taqdim etilishi lozim.

Fond bozorining barqaror va raqobatbardosh rivojlanishini ta'minlash uchun yuqorida bayon etilgan har bir strategik chora-tadbir kompleks yondashuv asosida amalga oshirilishi muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 apreldagi PF-5016-son "O'zbekiston Respublikasi Xususiy lashtirilgan korxonalariga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasini tashkil etish to'g'risida"gi Farmoni
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 14-yanvardagi PF-5630-son "Davlat aktivlarini boshqarish, monopoliyaga qarshi kurashishni tartibga solish tizimini va kapital bozorini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 24-yanvardagi PQ-4127-son "O'zbekiston Respublikasi kapital bozorini rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi PQ-5073-son "Kapital bozorini tartibga solish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori



5. Ludger Hentschel. "Investments: An Introduction". 2008
6. James D. Cox, Robert W. Hillman, Donald C. Langevoort, Ann M. Lipton. "Securities Regulation: Cases and Materials". The Business Lawyer, 2021. Tenth Edition
7. Brealey, R., Myers, S., & Allen, F. (2017). Principles of Corporate Finance. McGraw-Hill Education.
8. Ross, S., Westerfield, R., & Jordan, B. (2016). Fundamentals of Corporate Finance. McGraw-Hill Education.
9. Damodaran, A. (2012). Investment Valuation: Tools and Techniques for Determining the Value of Any Asset. Wiley.
10. Brigham, E., & Ehrhardt, M. (2016). Financial Management: Theory & Practice. Cengage Learning.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
